

**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar
va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
2019 yil yanvar-iyun (dastlabki ma'lumot)**

2019 yil yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2092,6 ming so'mni** (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan **30,1 %** ga o'sishni ta'minladi.

**O'tgan yilning mos davriga nisbatan mehnatning asosiy
ko'rsatkichlarining o'zgarishi, foizda**

(2019 yil yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
sub'ektlaridan tashqari)

| | | |
|--------------------|--|--------------|
| | Korxonalar va tashkilotlar soni | 104,8 |
| Yanvar-iyun | Xodimlar soni | 104,6 |
| 2019 y. | Ish haqi fondi | 136,1 |
| | O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi | 130,1 |

**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar
va tashkilotlarda xodimlar soni va ish haqi fondi
(2019 yil yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
sub'ektlaridan tashqari)**

| | <i>Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik</i> | <i>Xodimlar soni, ming kishi</i> | <i>Ish haqi fondi, mlrd. so'm</i> | <i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm</i> |
|---|--|--|---|---|
| Respublika bo'yicha - jami | 60744 | 2724,5 | 34207,9 | 2092,6 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | |
| Sanoat | 635 | 442,1 | 7894,8 | 2976,2 |
| Qurilish | 191 | 45,7 | 661,1 | 2409,2 |
| Savdo | 507 | 58,9 | 738,8 | 2092,1 |
| Tashish va saqlash | 232 | 123,0 | 1943,6 | 2632,9 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 177 | 8,1 | 78,8 | 1631,4 |
| Axborot va aloqa | 256 | 29,6 | 670,2 | 3774,4 |
| Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik | 944 | 69,2 | 1679,9 | 4045,8 |
| Ta'lim | 23030 | 1024,6 | 10425,5 | 1695,9 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 1439 | 448,0 | 3892,2 | 1448,0 |
| San'at, ko'ngil ochish va dam olish | 2194 | 29,9 | 339,2 | 1889,8 |
| Boshqa faoliyat turlari | 31139 | 445,4 | 5328,8 | 1993,8 |

Ish haqi. 2019 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

Ta'lim sohasida 23030 ta muassasada 1024,6 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 37,6 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga

hisoblangan ish haqi fondi 10425,5 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 30,5 %) tashkil etgan.

Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1695,9 ming so'm

Maktabgacha ta'lim sohasi

1027,7 ming so'm



Umumiy o'rta ta'lim sohasi

1838,3 ming so'm



O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim sohasi

1499,7 ming so'm



Oliy ta'lim sohasi

2948,7 ming so'm



Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1695,9 ming so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 35,3% ga oshgan.




Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yil yanvar- iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Ta'lim sohasi bo'yicha qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Respublikadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri - 127,2%, Toshkent viloyati 104,0%, Jizzax viloyati - 101,9% va Navoiy viloyati - 101,7% hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining sakkizta hududda respublika o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Surxondaryo - 97,8%, Xorazm - 93,6%, Farg'ona - 91,5% hamda Qashqadaryo - 89,6 % viloyatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda






Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2019 yil yanvar- iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Sanoat sohasi bo'yicha bir qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Navoiy viloyati - 121,4%, Qoraqalpog'iston Respublikasi - 117,9%, Toshkent shahri - 115,2% va Toshkent viloyati - 110,5% hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, respublikaning o'nta hududida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Surxondaryo - 68,7%, Jizzax - 62,9%, Sirdaryo - 62,1% hamda Namangan - 59,6% viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda






Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yil yanvar- iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Toshkent shahri 118,8 %, Buxoro viloyati 112,4 %, Qoraqalpog'iston Respublikasi 111,0 % va Sirdaryo viloyati 108,6 % hissasiga to'g'ri kelgan.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi respublikaning to'qqizta hududida respublikadagi o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Surxondaryo - 95,2 %, Farg'ona - 94,5 %, Toshkent - 93,6% hamda Qashqadaryo - 80,3 % viloyatlarida kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda






Tashish va saqlash sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yil yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Tashish va saqlash sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini ko'radigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida - 120,9 % kuzatildi, shuningdek, respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlar Bukhoro - 103,3 % va Namangan - 102,6 % viloyatlarida kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, mamlakatning o'n bitta hududida tashish va saqlash sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi respublika darajasidan past bo'ldi.

Tashish va saqlash sohasida respublika ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Toshkent - 56,0 %, Sirdaryo - 53,4 %, Samarqand - 48,8 % hamda Andijon - 40,4 % viloyatlarida kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda






Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yil yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida 131,2 % kuzatildi. Shuningdek nisbatan yuqori ko'rsatkich Andijon viloyati 100,1 %ni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi respublikaning o'n ikkita hududida respublika o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Surxondaryo viloyati 76,9 %, Toshkent viloyati 75,8 %, Sirdaryo viloyati 74,5 % hamda Qashqadaryo viloyati 73,8 % hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Respublika bo'yicha 2019 yil yanvar-iyun oylarida 2018 yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati sog'liqni saqlashda 37,2 %, ta'lim sohasida 35,3 %, bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida 31,8 %, sanoatda 23,0 % va qurilishda 22,9 % kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %

(2019 yil yanvar- iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, %)







Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, %)

2018 y.

2019 y.



■ aprel

■ may



■ iyun



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, %)

2018 y.

2019 y.



■ aprel

■ may



■ iyun



Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, %)

2018 y.

2019 y.



■ aprel

■ may



■ iyun



Tashish va saqlash sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, %)

2018 y.

2019 y.




■ aprel

■ may

■ iyun

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Toshkent shahrida **2971,9** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **142,0** %), Navoiy viloyatida **2659,5** ming so'mni (**127,1** %) va Toshkent viloyatida **2300,7** ming so'mni (**109,9** %) tashkil etgan bo'lsa, Samarqand viloyatida **1738,2** ming so'mni (**83,1** %), Surxondaryo viloyatida **1722,8** ming so'mni (**82,3**%), Namangan viloyatida **1720,0** ming so'mni (**82,2** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlarining bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2019 yil yanvar-iyun, respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yuridik shaxslarda
ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2019 yil yanvar- iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)**

| | 2018 yil yanvar- iyun | 2019 yil yanvar- iyun | O'sish sur'ati, % |
|---------------------------------|--------------------------|--------------------------|-------------------|
| O'zbekiston Respublikasi | 1608,5 | 2092,6 | 130,1 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 1563,4 | 2000,9 | 128,0 |
| <i>viloyatlar:</i> | | | |
| Andijon | 1488,5 | 1901,1 | 127,7 |
| Buxoro | 1503,3 | 1935,5 | 128,8 |
| Jizzax | 1370,6 | 1770,1 | 129,1 |
| Qashqadaryo | 1429,5 | 1770,2 | 123,8 |
| Navoiy | 2141,5 | 2659,5 | 124,2 |
| Namangan | 1260,9 | 1720,0 | 136,4 |
| Samarqand | 1275,6 | 1738,2 | 136,3 |
| Surxandaryo | 1307,5 | 1722,8 | 131,8 |
| Sirdaryo | 1374,5 | 1779,7 | 129,5 |
| Toshkent | 1768,3 | 2300,7 | 130,1 |
| Farg'ona | 1317,3 | 1722,6 | 130,8 |
| Xorazm | 1323,1 | 1778,5 | 134,4 |
| Toshkent sh. | 2253,6 | 2971,9 | 131,9 |

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2019 yil iyun oyida 577,2 ming so'mni tashkil etgan, Vazirlar Mahkamasining



2019-yil 18-yanvardagi 47-sonli qaroriga binoan, mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirish kiritildi va 1,2,3-razryadlari koeffitsiyentlari oshirildi) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

***Davlat statistika qo'mitasining
Demografiya va mehnat statistikasi
boshqarmasi***

Tel: (71) 230-80-66, 230-81-26